

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

OUTLINE

VOLUME-3, SPECIAL ISSUE-6, DECEMBER (INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCHER)

O'ZBEKISTONDA KICHIK SHAHARLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Murodqulova Guliniso Sherzodovna

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti 3 bosqich talabasi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston shaharlari rivojlanishining zamoniy xususiyatlari qisman yortilgan bo'lib, shaharlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning tarixan shakllanishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek dunyoning turli mintaqalaridagi shaharlarni rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaharlar, urbanizatsiya, guruholashtirish, shahar funkiiyalari, millioner shaharlar, global shaharlar, arvoh shaharlar.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan barcha sohalarda yangi iqtisodiy islohotlar aytish joizki respublikamiz hukumati tomonidan urbanistik tizimini takomillashtirish bo'yicha ham bir qator islohatlar amalga oshirila boshlandi. Xususan O'zR Prezidentining 2005-yil 14-iyulda "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlari ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan. Shuningdek, 2009-yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martda "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2016-yil 5-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shahar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlar shular jumlasidandir.

Shaharlarning rivojlantirmasdan jamiyat, mamlakat va mintaqalar taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining 50,8% shahar, 49,2% qishloqlarda istiqomat qiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning urbanizatsiyalashish darajasini belgilab beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiyalashish ko'rsatkichi 50,8%ni tashkil qiladi. Respublika hududlarining urbanizatsiya jarayoni bir biridan farq qiladi.

Qishloqlarning shaharchalarga aylanishi respublika urbanizatsiyasida o'ziga hos yangi bosqich bo'ldi. Shahar aholisi soni 2008-yilda 9,6 mln. bo'lgan bo'lsa, 2009-yilda 14,3 mln. kishini tashkil etmoqda, urbanizatsiya darajasi 50,8% ga ko'tarildi. Bunda eng yuqori ko'rsatkichi Namangan viloyatida kuzatilib, 64,4%, ikkinchi o'rinda Farg'ona viloyati – 58,7% va uchinchi viloyat Andijonda-53,1% shahar aholisi qayd etildi. Agar nazariy jihatdan tahlil qilinsa, aholi soni va ular oila a'zolarining aksariyatini qishloq xo'jaligida band emasligini hisobga olsak, shaharcha maqomi berish talablariga javob beradi. Biroq, shahar infiratuzulmasi, arxitekturasi, shahar madaniyati, aholining yashash tarzi jihatidan, bu "soxta urbanizatsiya"ning bir ko'rinishidur. Aksaryat hollarda shaharlar soning ko'pligi, yirik shahar va shaharchalar va shahar aglomeratsiyalarning mavjudligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuqoriliginini ko'rsatadi. 2020-yil ma'lumotlariga binoan, respublikada 0,38 ming kv.km gacha o'rtacha bitta shahar aholi manzilgohi mos kelgan. Bu ko'rsatkich tabbiy xo'jalik rayonlarida turlicha farqlanadi.

2009-yilda O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha yangi qo'shilgan shaharchalar hisobiga respublika bo'yicha mingdan ortiq shaharchalar vujudga keldi. Shaharchalar soni bo'yicha eng yuqori hududlar Farg'ona viloyatida 197 ta, Qashqadaryo viloyatida 117 ta,

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

Namangan viloyati 115 ta, Surxandaryo viloyatida esa 112 ta tashkil etgan bo'lsa, shaharchalar soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Navoiy viloyatida 46 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 26 ta, Sirdaryo viloyatida esa 25 tani tashkil etmoqda . O'zbekiston Respublikasi shahar manzilgohlari mamlakat mintaqalari bo'yicha notekkis taqsimlangan.

O'zbekiston Respublikasi shahar manzilgohlari mamlakat mintaqalari bo'yicha notekkis taqsimlangan. Demografik salohiyati yuqori, iqtisodiyoti nisbatan barqaror bo'lган iqtisodiy rayonlar to'ri ham yaxshi rivojlangan. O'zbekiston Respublikasida shaharlar salmog'iini hisobga olgan holda urbanizatsiyalashgan hududlarni darajasini aniqlash mumkin bo'ladi. Shaharlar salmogi eng ko'p Farg'ona (423 ta) mintaqasiga tegishli bo'lib, unda O'zbekiston shaharlar manzilgohlarini 35,1% joylashgan. Shuningdek, shaharlar soni bilan Janubiy, Zarafshon va Toshkent iqtisodiy rayonlari ham nisbatan yaxshi ta'minlangan. Ayni paytda iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega bo'lган Quyi Amudaryo va Mirzacho'l mintaqalarida shaharlar to'ri sust ekanligini ko'rish mumkin. O'zbekiston shaharlarining salmog'iini 2-rasm orqali aniqlangan bo'lib, shaharlarning ulishi hududlar kesimida tahlil qilingan.

Shahar aholisining hududlardagi ko'rsatkichi yuqoridagi jadvalda berilgan bo'lib, har bir hududlarda bu ko'rsatkich turlicha ekanligini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shahar aholisi salmog'i 32,9% tashkil etmoqda. Shahar aholisining ulishi viloyatlar kesimda tahlil qilinganda Navoiy viloyati 40,2%, Qoraqalpog'iston Respublikasi 40,1%, Toshkent viloyati 39,2%, Namangan viloyati 34,1% tashkil etib Respublika ko'rsatkichidan yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Shahar aholisi salmog'ida shaharchalar aholisi kiritilmagan bo'lib, shahar maqomiga ega bo'lган shaharlar asosida tuzilgan. Respublika ko'rsatkichini 32,9% bo'lган shahar aholisi, ushu ko'rsatkichan past ko'rsatkicha ega bo'lган Qashqadaryo viloyati 31,2%, Andijon viloyati 27,8%, Farg'ona viloyati 26,9%, Buxoro viloyati 25%, Sirdaryo viloyati 23,1%, Samarqand viloyati 22,4%, Jizzax viloyati 22,3%, Surxandaryo viloyati 16,3% va Xorazm viloyati 13,6% ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Shaharlar hamma davrlarda va har doim davlatlarning qudratini ko'rsatib turuvchi vosita bo'lган. Shu bois hukumatimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki yillardanoq urbanizatsiya darajasini ko'tarish borasida say harakatlari amalga oshirila boshlandi. Buning natijasi shahar va shaharchalar salmog'i keskin oshgan bo'lsada ruurbanizatsiya hisobiga amalga oshirildi. Bugungi kunda shahar va shaharchalar orasidan qulay geografik o'ringa ega bo'lган yetakchi shaharlarni belgilab olishimiz va bosqichma bosqich rivojlantirishimiz maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-soni "Urbanizatsiya jarayonini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to"g"risida" Farmoni.
2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdieva M.M. Shaharlar geografiyasi.O"quv qo'llanma.- T., "Vneshinvedtprom", 2019.
3. Mavlonov A.M., Cho'l sharoitida shaharlarning shakllanish va rivojlanish muommolari (Buxoro viloyati misolda) g.f.n darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro 2019y.
4. ALAVUTDINOVA GANIEVNA, N. (2015). PLACE OF PROFESSOR AYYUB GULOMOV IN FORMING OF MORPHOLOGICAL VIEWPOINTS IN UZBEK LINGUISTICS OF XX CENTURY. Electronic Turkish Studies, 10(12).
5. Khasanova, G. (2023). Some Considerations on Nonverbal Communication (No. 11076). EasyChair.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari